




“Tasdiqlayman”

**Xalqaro Nordik universiteti
rektori Sh.I. Mustafakulov**



**XALQARO NORDIK UNIVERSITETIDA
MAGISTRLIK DISSERTATSIYASINI TAYYORLASH,
RASMIYLASHTIRISH VA HIMOYA QILISH
TO‘G‘RISIDA
NIZOM**

Toshkent - 2025

*Xalqaro Nordik universitetining 2025-yil 01-dekabrdagi 11-sonli Kengash qarori
bilan o'zgarishlar qayta muhokamadan o'tgan va tasdiqlangan*

I. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestasiyadan o'tkazish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida" 2012 yil 24 iyuldagi PF-4456-son hamda "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Farmonlari, 2007-yil 10-sentabrdagi 190-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimida magistratura faoliyatini yanada takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Magistratura to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 2015 yil 2 martdagi 36-son qaroriga muvofiq Xalqaro Nordik universitetida (keyingi o'rinlarda Universitet deb yuritiladi) magistrlik dissertatsiyasi mazmuni va sifatiga qo'yiladigan mezonlar va talablar hamda magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash va uni himoya qilish tartibini belgilaydi.

2. Universitet magistratura talabalarining yakuniy davlat attestatsiyasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2009 yil 22 maydagi 160-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risida"gi nizom hamda 2021 yil 16-noyabrdagi 1963-3-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risidagi nizomga o'zgartirishlar kiritish haqidagi" gi Nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

3. Magistrlik dissertatsiyasi universitetning magistratura talabasi tomonidan dolzarb mavzu yuzasidan shaxsan olib borilgan, tadqiqot mohiyati tegishli talablarga javob bergan, tugallangan va mazmunan yaxlit ilmiy ish sifatida ilmiy yangiligi va amaliy natijalari tizimli ravishda asoslab berilgan qo'lyozma huquqiga ega bo'lgan ilmiy asardir.

4. Universitetda magistrlik dissertatsiyalarini tayyorlashni muvofiqlashtirish Magistratura fakulteti tomonidan amalga oshiriladi, fakultet kafedralar va boshqa tarkibiy bo'linmalar bilan birgalikda quyidagilarni ta'minlaydi:

magistrlik dissertatsiyasi mavzulari dolzarb, tegishli sohadagi mavjud muammolarni ilmiy va amaliy jihatdan hal etishga qaratilishi;

magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash jarayoni ustidan doimiy monitoring olib borilishi.

II. Magistrlik dissertatsiyasi mavzusini tanlash va ilmiy rahbar tayinlash

5. Magistrlik dissertatsiyasi o'qish va o'quv dasturlarini o'zlashtirish jarayonida magistratura talabasi egallagan nazariy va amaliy bilimlari asosida bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining natijasi hisoblanadi.

6. Magistrlik dissertatsiyalarining mavzulari tanlangan soha mutaxassisligi bo'yicha dolzarb ilmiy-tadqiqot masalalariga hamda ularni tor qamrovda chuqur tadqiq qilishga yoki aniq amaliy vazifalarni hal etishga bag'ishlangan bo'lishi lozim. Magistrlik dissertatsiyalarining namunaviy mavzulari kafedra tomonidan shakllantiriladi. Magistratura talabasi kafedra tomonidan shakllantirilgan mavzulardan birini yoki kafedra bilan kelishga holda o'zi taklif etgan mavzuni tanlashga haqli.

Magistrlik dissertatsiyalarining mavzulari tarmoq, muassasa va tashkilotlarning buyurtmalari asosida ham shakllantirilishi mumkin.

7. Magistrlik dissertatsiya mavzusini tanlash va ilmiy rahbar tayinlanishi uchun magistratura talabasi tegishli mutaxassislikka mos keluvchi kafedra mudiri nomiga o'quv yili birinchi semestrining ikkinchi oyi yakuniga qadar ariza bilan murojaat qiladi. Tegishli kafedra tanlangan magistrlik dissertatsiyalari mavzulari va ilmiy rahbarlar to'g'risidagi ma'lumotlarni bayonnoma bilan tasdiqlaydi hamda 10 kun muddat ichida Magistratura fakultetiga taqdim etadi. Magistratura fakulteti taqdim etilgan ma'lumotlarni Universitet Kengashida muhokama qilish uchun kiritadi.

8. Magistrlik dissertatsiyasiga ilmiy rahbarlik Universitetda, boshqa oliy ta'lim yoki ilmiy tadqiqot muassasasida ishlaydigan ilmiy daraja (fan doktorlari, falsafa doktorlari (PhD), fan nomzodlari) va / yoki ilmiy unvon (professor, dotsent)ga ega bo'lgan, shuningdek belgilangan tartibda magistrlik, ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega bo'lgan xorijiy mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat organlari va tashkilotlarning yuqori malakali va tajribali amaliyotchi mutaxassislari yoki xorijiy mutaxassislar tomonidan ham ilmiy rahbarlik amalga oshirilishi mumkin. Davlat organlari va tashkilotlarning xodimlaridan ilmiy rahbar tayinlangan taqdirda, magistratura talabasiga qo'shimcha ravishda tegishli kafedra professor-o'qituvchilari tarkibidan ilmiy maslahatchi tayinlanadi. Magistrlik dissertatsiyasini bajarish doirasida ilmiy rahbar bilan bir xil mas'uliyat ilmiy maslahatchiga ham yuklatiladi.

9. Universitetda ishlaymaydigan xodimlardan bo'lgan ilmiy rahbar mehnatiga haq to'lash belgilangan tartibda mehnatga soatbay haq to'lash shartlari bo'yicha bir o'quv yiliga bir magistratura talabasi uchun ajratilgan soatlar hajmida, Universitet

xarajatlar smetasida bu maqsadlar uchun nazarda tutilgan mablag'lar doirasida amalga oshiriladi.

10. Ilmiy rahbar (ilmiy maslahatchi)ning magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash bo'yicha magistratura talabasi bilan ishlashi uning Universitetda o'quv yili shaxsiy ish rejasi bilan belgilanadigan o'quv yuklamasiga kiritiladi.

11. Qoida tariqasida Kengash qarori bilan professor yoki fan doktoriga (DSc) yettitagacha, shuningdek, dotsent, fan nomzodi va falsafa doktoriga (PhD) beshtagacha magistrlik dissertatsiyasiga rahbarlikni amalga oshirishlari mumkin.

12. Kafedralar tomonidan taqdim etilgan va Universitet Kengashida muhokama qilingan magistratura talabalarining magistrlik dissertatsiyalari mavzulari va ularning ilmiy rahbarlari (ilmiy maslahatchilari) o'quv yili birinchi semestri yakunlanganidan so'ng bir oy ichida tegishli Universitet rektorining buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

13. Magistrlik dissertatsiyasi mavzulari tasdiqlanib, ilmiy rahbarlar (ilmiy maslahatchilar) tayinlangandan so'ng 1 oy muddatda magistratura talabasi familiyasi, ismi, otasining ismi, ilmiy rahbar (ilmiy maslahatchi) hamda dissertatsiya mavzulari to'g'risidagi ma'lumot Universitetning rasmiy veb-sayti yoki tegishli kanallarida e'lon qilinadi.

14. Ilmiy rahbarning majburiyatlariga quyidagilar kiradi:

magistratura talabasining kalendar ish rejasini tuzishda unga yordam berish;
tadqiqot mavzusi doirasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan masalalar bo'yicha tizimli ravishda yordam berish maqsadida maslahatlar jadvalini tuzish;

tadqiqot usullarini tanlashda ishtirok etish va ularni tadqiqot ishida qo'llashda magistratura talabasiga ko'maklashish;

magistratura talabasining belgilangan kalendar ish rejasi bo'yicha ishlarning bajarilishini va magistrlik dissertatsiyasi o'z vaqtida tayyorlanishini nazorat qilish;

dastlabki himoya sanasidan kamida 5 kun oldin magistrlik dissertatsiyasiga xulosa berish;

rahbarlik qilayotgan magistratura talabasining dastlabki himoyasida shaxsan ishtirok etish.

15. Magistrlik dissertatsiyasi mavzusini o'zgartirish ilmiy rahbar (ilmiy maslahatchi)ning roziligi asosida, mavzuni o'zgartirish sabablarini izohlagan holda Universitet rektori nomiga yozma ariza taqdim etish orqali Universitet rektorining buyrug'i bilan amalga oshiriladi.

16. Ilmiy rahbar (ilmiy maslahatchi)ni o'zgartirish tegishli kafedra mudiri bilan kelishilgan holda hamda magistratura talabasining ilmiy rahbar (ilmiy

maslahatchi)ni o'zgartirish sabablari keltirilgan yozma arizasi asosida amalga oshiriladi va Universitet rektorining buyrug'i bilan yangi ilmiy rahbar tayinlanadi.

17. O'zgartirilgan magistrlik dissertatsiyasi mavzusi va ilmiy rahbar (ilmiy maslahatchi) to'g'risidagi ma'lumot bir hafta muddatda Universitetning rasmiy veb-sayti yoki tegishli kanallarida e'lon qilinadi.

III. Magistrlik dissertatsiyasining tuzilishi va uning mazmuniga qo'yiladigan talablar

18. Dissertatsiya quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'lishi lozim:

- titul varaq (1-ilova);
- titul varaqning orqa tomonida tegishli shaxslar imzosi uchun shakl hamda tinglovchi deklaratsiyasi (2-ilova);
- mundarija;
- talaba o'qigan til va ingliz tilidagi dissertatsiyaning qisqacha annotatsiyasi;
- keltirilgan qisqartmalar (agar mavjud bo'lsa);
- kirish qism;
- adabiyotlar sharhi;
- metodologiya;
- tajriba-sinov tahlili va natijalar;
- foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati;
- ilovalar (agar mavjud bo'lsa).

1. Dissertatsiyaning kirish (Introduction) qismi dissertatsiyaning umumiy hajmining 10% (800-1000 ta so'z) gacha miqdorini tashkil etadi va u quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- 1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi;
- 1.2. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari;
- 1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari;
- 1.4. Tadqiqotning obyekti va predmeti;
- 1.5. Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy yangiligi;
- 1.6. Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.

2. Dissertatsiyaning navbatdagi mazmunan asosiy hisoblangan qismi tarkiban 3 bobdan iborat bo'lib, bunda tadqiqot masalalari to'liq yoritilishi lozim. qismlari quyidagicha ko'rinishda bo'lishi tavsiya etiladi:

Ushbu asosiy qismning bo'limlari hajm jihatidan o'zaro mutanosib bo'lishi va quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim:

- tadqiqot mavzusi bo'yicha boshqa manbalarda keltirilgan nazariy, amaliy va

empirik tadqiqotlar natijalarining tanqidiy tahlili;

- talaba tomonidan olib borilgan tahliliy ishlarning tavsifi, tadqiqot olib borishda qo'llanilgan uslublar hamda tadqiqot vositalarining bayoni;

- dissertatsiyada talabaning ta'lim, fan, madaniyat, texnika, iqtisodiyot, ijtimoiy yoki boshqa sohalarning dolzarb muammolarini hal etishga qo'shgan shaxsiy hissasi;

- tadqiqot natijalari va ularning muhokamasini.

Asosiy qism boblari quyidagicha ko'rinishda bo'lishi tavsiya etiladi:

1-bob. Mazkur qism adabiyotlar sharhiga (literature review) bag'ishlangan bo'lib, unda tadqiqot mavzusi bo'yicha boshqa manbalarda keltirilgan nazariy, amaliy va empirik tadqiqotlar natijalarining tanqidiy tahlili yoritiladi, tadqiqotda gipotezalar keltirish nazarda tutilgan bo'lsa ular asoslanadi, dissertatsiya umumiy hajmining 15 % (1200-1500 ta so'z) gacha miqdorini tashkil etadi;

2-bob. Bu qism tadqiqot metodologiyasiga bag'ishlangan bo'lib, to'plangan ma'lumotlar manbalari, tadqiqot dizayni, tadqiqotda qo'llanilgan uslublar, tadqiqot paradigmasi, tadqiqot dizaynining cheklovlari hamda foydalanilgan vositalar bayoni keltiriladi. Tadqiqot muammosi va yechimiga qaratilgan taklif etilayotgan metodika va tavsiyalar bo'ladi, dissertatsiya umumiy hajmining 5 % gacha (300-500 ta so'z) miqdorini tashkil etadi;

3-bob. Ushbu qismda tadqiqot tahlili va natijalari keltiriladi hamda ular muhokama qilinadi, ulardan kelib chiqqan holda tavsiya va takliflar kiritiladi, tavsiyalarga ta'rif va asoslar bayon qilinadi. Ushbu bobni kengaytirish yoki tadqiqot dizayni taqozo etsa qo'shimcha qismlar qo'shish mumkin. Ushbu bob dissertatsiya umumiy hajmining 40 % (3000-4000 ta so'z) gacha miqdorini tashkil etadi.

3. Dissertatsiyaning xulosa qismi dissertatsiyaning oxirgi qismi hisoblanadi va dissertatsiya umumiy hajmining 10 % gacha (800-1000 ta so'z, ya'ni 4 betdan oshmasligi kerak) miqdorini tashkil etadi va u quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- 3.1. Tadqiqotning asosiy ilmiy va amaliy yangiligi va natijalari;

- 3.2. Tadqiqot natijasida keltirilgan asosiy tavsiya va takliflar;

- 3.3. Tadqiqot qamrovi chegaralari;

- 3.4. Kelajakdagi tadqiqotlar uchun tavsiyalar.

4. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatiga faqatgina matnda iqtibos yoki havola qilingan adabiyotlar manbalari va boshqa manbalar detallashtirilgan, alfavitli (raqamlashgan) ro'yxat ko'rinishida keltiriladi yoki Kembridj tizimidan foydalangan holda rasmiylashtiriladi. Dissertatsiya umumiy hajmining 10 % gacha (800-1000 ta so'z) miqdorini tashkil etadi

5. Dissertatsiyaning ilova qismiga matnda aks etmagan, dissertatsiya mazmun-mohiyatini yanada chuqur tushunishga qaratilgan, qo'shimcha sifatida qaraluvchi ma'lumotlar kiritiladi. Bunda ilovaning hajmi dissertatsiya umumiy hajmining 1/3 qismidan oshmasligi lozim. Dissertatsiya umumiy hajmining 5 % gacha (300-500 ta so'z) miqdoridan oshmasligi kerak.

6. Dissertatsiyada magistrlar professional etika qoidalarining buzilishi (plagiat, ma'lumotlarni soxtalashtirish hamda yolg'on iqtibos keltirish)ga yo'l qo'yilmaydi.

7. Dissertatsiyani rasmiylashtirish tartibi va namunalari Universitetning o'quv, ilmiy-uslubiy Kengash tomonidan tasdiqlangan "Magistrlik dissertatsiyalarini rasmiylashtirish bo'yicha uslubiy qo'llanma"da batafsil keltiriladi va unga ko'ra qat'iy rasmiylashtiriladi.

8. Dissertatsiyaning asosiy hajmi titul varaq, mundarija, kirish, adabiyotlar ro'yxati, xulosa va ilovalardan tashqari mazmunan yaxlitlangan holda 40 betdan oshmasligi lozim.

9. Dissertatsiya magistr ta'lim olgan tilda (kafedra tavsiyasiga muvofiq ingliz tilida yoki rus tilida ham) yozilishi mumkin.

10. Magistratura mutaxassisligi xususiyati hisobga olingan holda magistrlik dissertatsiyasi tarkibiy qismlarining mazmuni va hajmi Universitet o'quv, ilmiy-uslubiy kengashining qarori bilan o'zgartirilishi mumkin.

11. Magistrlik dissertatsiyasini rasmiylashtirish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar va namunalar Universitet Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

19. Magistrlik dissertatsiyasi matnining rasmiylashtirilishiga qo'yiladigan talablar:

1. Dissertatsiya matni A4 formatdagi qog'oz varog'ining bir tomonida joylashishi va qoida tariqasida, standart varoq 1,5 qator oralig'ida ("polutorniy") yozilishi lozim. Har bir bet: yuqoridan va pastdan 2 sm; chapdan 3 sm; o'ngdan 1,5 sm hoshiyaga ega; xatboshi 1,27 sm ga teng va bir xilda bo'lishi lozim.

2. Matnni kompyuter vositasida bosib chiqarishda "Times New Roman" 14 o'lchamli shriftda "Microsoft Word" matn redaktoridan foydalanish tavsiya qilinadi. Betlar titul varog'idan boshlab oxirgi varoqqacha izchil ketma-ketlikda raqamlanadi. Betning tartib raqami varoqning pastki o'ng burchagida 2 raqamidan boshlab yoziladi. Titul varog'iga 1 raqami qo'yilmaydi.

3. Dissertatsiya tarkibiy qismlarining bosh sarlavhalari IMRAD qoidasi bo'yicha ("Kirish+adabiyotlar sharhi", "Metodologiya", "Tahlil va natijalar" "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati" va boshqalar) bosh harflarda yoziladi.

4. Dissertatsiyaning har bir qismi kichik sarlavhalarga ega bo'ladi.

5. Sarlavhalarining yuqori va pastki qismidan 12 o'lchamli ("pt") oraliq qoldirilishi kerak.

6. Dissertatsiya matnida foydalanilgan adabiyotlardan olingan materialga havola qilinganda, rasmiylashtirish qoidalariga asosan amal qiladi.

7. Dissertatsiya matnida foydalanilgan adabiyotlardan olingan materialga havola qilinganda, rasmiylashtirish qoidalariga asosan amal qiladi.

8. Surat, fotosurat, grafik, chizma, diagramma va shu kabilar "rasm" so'zi bilan ifodalanib, ular varaqda ko'rish uchun qulay tarzda joylashtirilishi kerak (1-rasm).

8.1. Rasmlar ikki bet o'rtasida bo'linishi yoki ularning nomlari bo'linishiga yo'l qo'yilmaydi. Paragraf yoki bob rasm bilan tugashi mumkin emas. Rasmni keyingi betga o'tkazish maqsadida o'sha betda bo'sh joy qoldirish maqsadga muvofiq emas.

8.2. Rasmlar ular joylashgan tartib raqami ko'rsatilgan holda, izchil ketma-ketlikda, rasmning pastida o'rta qismida raqamlanadi (masalan: "1-rasm."), ilovalarda keltirilgan rasmlar bundan mustasno. Har bir rasm nomlanishi kerak. Rasmning nomi uning ostki qismining o'rtasiga («po syentru»), qoraytirilgan («polujirnyy») holda yoziladi. Zarur hollarda rasmga izoh berilishi mumkin va u ham rasmning ostiga qo'yiladi. Rasm boshqa manbalardan olingan bo'lsa ko'rsatish lozim. Manba Garvard usulidagi iqtibos ko'rinishida yoki rasmning pastki qismidan "Manba:" so'zi yozilgach, keltirilishi mumkin. Dissertatsiya davomida manbani keltirishning faqat bir usuli qo'llanilishi talab etiladi.

8.3. Rasmlar ular joylashgan butun dissertatsiya bo'ylab izchil ketma-ketlikda, rasmning pastida o'rta qismida quyidagi ko'rinishda raqamlanadi (ilovalarda keltirilgan rasmlar bundan mustasno).

8.4. Raqamli materiallar jadval ko'rinishida rasmiylashtirilishi mumkin. Jadvallar ular joylashgan tartib raqami ko'rsatilgan holda, izchil ketma-ketlikda, jadvalning tepa o'ng burchak qismida raqamlanadi (masalan: "1-jadval."). Har bir jadval nomlanishi kerak. («Manba» keltirilganda jadval ostida 10-shrift, kursivda hamda satri ("interval") "pered" qismidan "6 pt" kattalikda keltiriladi. Jadvalning nomi uning ustki qismi o'rtasiga («po syentru»), qoraytirilgan («polujirniy») holda yoziladi. **Jadval** va **Jadval nomi** oxiriga nuqta qo'yilmaydi.

9. Dissertatsiya matnida beriladigan formulalar (tenglamalar) "Microsoft Word" matn redaktorining "Formula" funksiyasi yordamida aniq yozilgan bo'lishi shart. Katta va kichik harflar, yuqori va pastki indekslar formulada aniq berilishi

kerak.

9.1. Formula uchun belgilarning o'lchami quyidagicha ifodalanishi tavsiya etiladi:

- katta harflar va raqamlar 5-6 mm;
- kichik harflar 3 mm dan kam bo'lmagan;
- daraja ko'rsatkichlari va indeksleri 2 mm dan kam bo'lmagan hajmda.

9.2. Formula va tegishli material "LaTeX" formatida berilishi mumkin.

9.3. Belgilarning ma'nolari bevosita formula ostida ularning formuladagi ketma-ketligi bo'yicha beriladi. Har bir belgining ma'nosi yangi qatordan berilishi lozim. Berilgan ma'nolarning birinchi qatori "bunda" degan so'z bilan ikki nuqtasiz boshlanadi.

9.4. Formulalar matndan alohida bo'sh qatorlar bilan ajratib yoziladi. Har bir formulaning yuqori va pastki tomonlaridan 12 o'lchamli ("pt") oraliq qoldirilishi kerak.

9.5. Agar tenglama bitta qatorga sig'masa, sig'magan qism tenglik belgisi "=" yoki qo'shish "+", ayirish "-", ko'paytirish "x" va bo'lish ":" belgilaridan keyin ko'chirilishi kerak.

9.6. Har bir formula tartib raqami ko'rsatilgan holda, izchil ketma-ketlikda, formulaning o'ng tomonida qavs ichida raqamlanadi (masalan: "(1)").

Namuna

Aktivlarning qaytim normasi (inflatsiya hisobga olinmaganda) barcha pul tushumlarining sotib olingan aktiv narxiga nisbati bilan aniqlanadi:

$$R = \frac{D+(K_1 - K_0)}{P} = \frac{D+\Delta K}{P} \quad (1.1.)$$

Bunda:

R - qaytim normasi;

D - dividend;

$\Delta K = K_1 - K_0$ - kapital ortimi;

P - sotib olingan aktiv narxi.

9. Dissertatsiya matnida ko'rsatilgan rasm, jadval yoki formulaga havola qilinganda, qavs ichida tegishli rasm, jadval yoki formulaning raqami (belgisi) keltirilib, "qarang" degan so'z qo'llaniladi (masalan: ("1.3-jadvalga qarang")).

10. Dissertatsiya matnida beriladigan izohlar izchil ketma-ketlikda raqamlanadi (masalan: "Izoh 1.:").

11. Dissertatsiya matnida ko'rsatilgan shaxslarning F.I.O. hamda tashkilot va

mahsulotlarning nomlari va boshqa atoqli otlar o'zgartirilib yozilishiga yo'l qo'yilmaydi.

12. Dissertatsiyaning ilovalari alohida betlarda rasmiylashtirilib, izchil ketma-ketlikda raqamlanadi va "ilova" degan so'z bilan ifodalanadi (masalan: "1-ilova"). Ilova tegishli sarlavhaga ega bo'ladi.

13. Ilovalar dissertatsiyadan alohida jildda rasmiylashtirilganda, jildning titul varag'ida dissertatsiya mavzusining nomi va uning ostida bosh harflar bilan "Ilovalar" degan so'z yoziladi.

14. Magistratura mutaxassisligi xususiyatidan kelib chiqqan holda dissertatsiya tarkibiy qismlarining mazmuni va hajmi o'zgartirilishi va kengaytirilishi mumkin.

VI. Magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash jarayonini monitoring qilish

1. Talaba tomonidan dissertatsiyani tayyorlash jarayonini monitoring qilish dastlab "Ilmiy tadqiqot metodologiyasi" fani, ilmiy seminarlar doirasida hamda birlashtirilgan ilmiy rahbar tomonidan doimiy ravishda amalga oshirib boriladi.

2. Talabalar tomonidan tayyorlangan magistrlik dissertatsiyalari dastlabki himoya o'tkazilishidan avval Universitetning Axborot-resurs markazida yaratilgan magistrlik dissertatsiyalarining elektron bazasi asosida ishlovchi Antiplagiat dasturi tekshiruvdan belgilangan tartibda o'tkaziladi va xulosa olinadi.

3. Antiplagiat bo'yicha tekshiruv xulosasi dissertatsiyaning rasmiy himoyasida Davlat attestatsiya komissiyasiga taqdim etiladi va ushbu xulosasiz himoyaga ruxsat berilmaydi.

4. Antiplagiat dasturida plagiatga yo'l qo'yilganligi aniqlansa, takroran 3 marotabagacha Antiplagiat tizimidan o'tishga ruxsat beriladi. Plagiat holatlari bartaraf etilmagan holda dissertatsiyani dastlabki himoya etishga ruxsat berilmaydi.

V. Magistrlik dissertatsiyaning dastlabki himoyasini o'tkazish tartibi

18. Dissertatsiya rasmiy himoya sanasidan kamida 1 oy oldin dastlabki himoyadan o'tkazilishi lozim.

Magistrlar Universitet rektori buyrug'i bilan kafedra tomonidan tuzilgan komissiya va ilmiy rahbar (ilmiy maslahatchi) ishtirokida dastlabki himoyadan o'tadi hamda taqrizchilar belgilanadi.

Dastlabki himoyaga boshqa kafedralardan, shuningdek boshqa tashkilotlardan mutaxassislar taklif etilishi mumkin.

Ilmiy maslahatchi tayinlangan holda dastlabki himoyaga qadar undan magistrlik dissertatsiyasiga xulosa olish ham talab etiladi.

19. Dastlabki himoyaga kirgunga qadar magistr dissertatsiya mavzusiga doir 2 ta ilmiy maqola va tezisga, tashqi taqriz hamda ilmiy rahbar xulosasiga ega bo'lishi talab etiladi.

Magistrlarning ilmiy faoliyati bilan bog'liq izlanish natijalari ilmiy nashrlarda va ta'lim muassasalarining rasmiy saytlarida chop etilishi mumkin.

Dastlabki himoyaga boshqa kafedralar, oliy ta'lim muassasalaridan va buyurtmachi tashkilotlar mutaxassislarini taklif etish mumkin. Dastlabki himoya natijalari bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.

20. Tashqi taqrizchilarni universitetning tegishli kafedراسي tavsiya etadi va ularning ro'yxati universitetning ilmiy ishlar bo'yicha prorektori tomonidan tasdiqlanadi.

21. Taqrizchilar vazifalariga quyidagilar kiradi:

- taqriz yozish uchun unga taqdim etilgan dissertatsiyada professional etika qoidalarining buzilish holatlari (plagiat, ma'lumotlarni soxtalashtirish hamda yolg'on sitata keltirish) ni aniqlash va dissertatsiyaning dolzarbligi, ilmiyligi va yakunlanganligi haqida xulosalar berish;

- belgilangan dastlabki himoya sanasidan kamida 3 kun oldin dissertatsiyaga yozma taqriz berish.

22. Taqrizchi dissertatsiyada magistr tomonidan professional etika qoidalari buzilganligi (plagiat, ma'lumotlarni soxtalashtirish hamda yolg'on sitata keltirish)ni aniqlagan taqdirda, mazkur qoida buzilishlarini qisqa muddatda tuzatish imkoniyati mavjud bo'lmasa, mazkur dissertatsiyani dastlabki himoyaga tavsiya etmaslik haqida taqriz beradi.

23. Magistrlik dissertatsiyasini rasmiy himoya qilish kuni oliy ta'lim muassasasi rektori (direktori) ning buyrug'i bilan tasdiqlangan jadval asosida belgilanadi.

24. Magistrlik dissertatsiyasining rasmiy himoyasi oliy ta'lim muassasasining Davlat yakuniy attestatsiya komissiyasi (keyingi o'rinlarda Komissiya deb ataladi) tomonidan o'tkaziladi.

25. Magistratura talabasi magistrlik dissertatsiyasining rasmiy himoyasi taqdimot materiallari bilan bayon etilishi va 15-20 daqiqadan oshmasligi lozim.

26. Rasmiy himoyada Komissiya a'zolari magistratura talabasini quyidagi mezonlar asosida baholaydi:

magistrlik dissertatsiyasi tadqiqot mavzusining dolzarbligini va uning amaliyot bilan bog'liqligini ko'rsatib bera olishi;

magistratura talabasining tadqiqotga va vazifalarni hal etishga mustaqil yondashuvi;

foydalanilgan ilmiy adabiyotlar, ilmiy nashrlar, normativ-huquqiy hujjatlar, statistik ma'lumotlar, shuningdek xorijiy tillardagi adabiyotlar tanqidiy tahlilining to'liqligi va chuqurligi;

tadqiqot usullari amaliyotda qo'llanilganligining asoslanganligi;

olingan natijalar asosida ishlab chiqilgan tavsiyalarning amaliy ahamiyati;

magistratura talabasining magistrlik dissertatsiyasi doirasida o'tkazilgan tadqiqotlar va olingan natijalarni rivojlantirish istiqbollari ko'ra bilish qobiliyati;

magistrlik dissertatsiyasining nazariy va amaliy qismlaridagi o'zaro mantiqiy bog'liqlikni kuzata bilish malakasi.

27. "Qoniqarsiz" baho qo'yilganda yoki magistrlik dissertatsiyasi rasmiy himoyaga qo'yilmagan taqdirda magistratura talabasi keyingi 3 yil davomida uni qayta himoya qilish huquqiga ega.

28. Magistrlik dissertatsiyalari rasmiy himoyasi natijalari oliy ta'lim muassasasi Ilmiy kengashida muhokama etiladi.

29. Himoya qilingan magistrlik dissertatsiyalari oliy ta'lim muassasasida 3 yil davomida saqlanadi.

VII. Ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalari yuzasidan

shikoyat qilish

30. Komissiya tomonidan qo'yilgan bahodan norozi bo'lgan magistratura talabasi dissertatsiya himoyasi natijalari e'lon qilingan kundan e'tiboran uch kunlik muddat ichida Universitet rektor nomiga apellyatsiya shikoyati berishi mumkin. Mazkur holatda Magistratura fakulteti dekanining bildirishnomasiga muvofiq rektor buyrug'i bilan 5 nafar a'zodan kam bo'lmagan apellyatsiya komissiyasi tuziladi.

31. Apellyatsiya komissiyasining uchdan ikki qismi mavjud bo'lganda u vakolatli hisoblanadi. Apellyatsiya komissiyasi qarori oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi va barcha komissiya a'zolari hamda majlis ishtirokchilari tomonidan imzolangan bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.

32. Magistratura talabasining shikoyati apellyatsiya komissiyasi tomonidan uning ishtirokida ko'rib chiqiladi.

33. Apellyatsiya komissiyasi shikoyatni ko'rib chiqish jarayonida magistratura talabasining e'tirozlarini har tomonlama o'rganib chiqadi.

34. Apellyatsiya komissiyasi tadqiqot faoliyati natijalarini qayta baholash

uchun qo'shimcha savollar berish huquqiga ega emas.

35. Apellyatsiya komissiyasi magistratura talabasining shikoyatini ko'rib chiqish yakunlari bo'yicha quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

qo'yilgan bahoni o'zgarishsiz qoldiradi;

qo'yilgan bahoni o'zgartiradi.

Apellyatsiya shikoyatini ko'rib chiqish jarayonida magistratura talabasi tomonidan olingan dastlabki bahoni pasaytirish taqiqlanadi.

VIII. Yakuniy qoidalar

36. Mazkur Nizomda belgilangan masalalar bo'yicha nizolar qonun hujjatlariga muvofiq hal qilinadi.

XALQARO NORDIK UNIVERISTETI

“IQTISODIYOT VA BIZNESNI BOSHQARISH”

KAFEDRASI

Qo‘lyozma huquqida

UDK: 65 9 (2)301

ABDURAXMANOVA AQIDA FAYZULLA QIZI

**HUDUDLARDA EKOLOGIK TURIZM SALOHIYATIDAN
SAMARALI FOYDALANISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH**
(Samarqand viloyati misolida)

70310102 – Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)
mutaxassisligi bo‘yicha

magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

D I S S E R T A T S I Y A

Ilmiy rahbar:

I.f.n., dots. R.A. Akbarov

Ilmiy maslahatchi:

I.f.n., dots. U.V. Umirova

Toshkent – 20__

Magistrlik dissertatsiyasi titul varag'ining orqa tomoni quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

Magistrlik dissertatsiya ishi

“_____” kafedrasida dastlabki
himoyadan o'tgan.

_____ - sonli bayonnoma “_____” _____20__ y.

Kafedra mudiri: F.I.Sh.

imzo

sana

Ilmiy rahbar: F.I.Sh.

imzo

sana

Talaba: F.I.Sh.

imzo

sana

MUNDARIJA

ANNOTATSIYA	4
KELTIRILGAN QISQARTMALAR	7
I BOB. KIRISH	8
1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	8
1.2. Tadqiqot maqsadi va vazifalari	10
1.3. Tadqiqotning asosiy muammo va masalalari.....	10
1.4. Tadqiqot obyekti va predmeti	11
1.5. Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati.....	11
1.6. Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi	12
II BOB. ADABIYOTLAR SHARHI	13
2.1. Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar sharhi.....	13
2.2. Mavzuga oid xorijiy va mahalliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi.....	18
III BOB. METODOLOGIYA	22
3.1. Ma'lumotlarni to'plash jarayoni	22
3.2. Tahlil uchun qo'llanilgan usullar	24
3.3. Tadqiqotni o'tkazish uchun zarur sharoitlar	25
3.4. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi.....	26
3.5. Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar	27
IV BOB. TAHLIL, NATIJALAR VA MUNOZARALAR	29
4.1. Tahlil va natijalar sharhi.....	29
4.2. Munozaralar sharhi.....	43
V BOB. XULOSA.....	47
5.1. Tadqiqot masalasiga tegishli natijalarning qisqacha ifodasi.....	47
5.2. Tadqiqotning asosiy taklif va tavsiyalari	48
5.3. Tadqiqot cheklovlari va kelgusi tadqiqotlar uchun takliflar	49
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	51
ILOVALAR	56